

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining F A R M O N I

O‘ZBEKISTONDA ILM-FAN, ADABIYOT, MADANIYAT VA SAN’AT SOHALARINI RIVOJLANTIRISHGA ULKAN HISSA QO‘SHGAN BIR GURUH MARHUM OLIM VA IJODKORLARNI MUKOFOTLASH TO‘G‘RISIDA

Inson qadrini ulug‘lash, ajdodlar xotirasini e‘zozlash, ularning ibratli ishlarini keng targ‘ib etish borasidagi ezgu sa’y-harakatlarimizni yanada kuchaytirish maqsadida o‘zining ko‘p yillik samarali ilmiy-ijodiy, ijtimoiy faoliyati, yorqin va betakror iste’dodi bilan xalqimizning intellektual salohiyatini yuksaltirish, milliy ma’naviyatimizni boyitish, mamlakatimizda ilm-fan, adabiyot, madaniyat va san’at sohalarini rivojlantirish, jamiyatimizda ezgulik va adolat, vatanparvarlik va bag‘rikenglik tamoyillarini mustahkamlash yo‘lida fidokorona xizmat qilib, avlodlarga qoldirgan boy merosi, sermazzun hayoti va insoniy fazilatlarini bilan el-yurt xotirasidan chuqur joy egallagan quyidagi marhum olim va ijodkorlar mukofotlansin:

- “Fidokorona xizmatlari uchun” ordeni bilan

Aripov Uktam — O‘zbekiston Respublikasi fan arbobi, akademik, jarroh olim
G‘afurov Vali — O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, adib
Jalolov To‘xtasin — O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi, adabiyotshunos olim, tarjimon
Kabulov Vasil Kabulovich — O‘zbekiston Respublikasi fan arbobi, akademik, kibernetik olim
Qosimov Begali — O‘zbekiston Respublikasi fan arbobi, jadidshunos olim
Muxamedov Quddus (Quddus Muhammadiy) — O‘zbekiston Respublikasi xalq shoiri
Parfiyev Tursunali (Rauf Parfi) — O‘zbekiston Respublikasi xalq shoiri
Radjapov Murad Yadgarovich — O‘zbekiston Respublikasi xalq artisti, aktyor
- “Mehnat shuhrati” ordeni bilan

Akilova Viloyat Isaxarovna — O‘zbekiston Respublikasi xalq artisti, baletmeyster
Axmedova Rimma Ashurovna — O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan artist, teatr aktyori va dublyaj ustasi
Vaxobov Ismoil — O‘zbekiston Respublikasi xalq hofizi
Madaliyev Oxunjon Nusratovich — O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan artist, xonanda
Nazarov Anarkul Mamadovich (Anor Nazarov) — O‘zbekiston Respublikasi san’at arbobi, kompozitor
Obitjonov Anvarjon (Anvar Obidjon) — O‘zbekiston Respublikasi xalq shoiri
- “Do‘stlik” ordeni bilan

Yuldashev Baxadir — “Diydor” teatr-studiyasi badiiy rahbari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining F A R M O N I

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUSTAQILLIGINING O‘TTIZ TO‘RT YILLIGI MUNOSABATI BILAN FAN, TA’LIM, SOG‘LIQNI SAQLASH, SPORT, ADABIYOT, MADANIYAT VA SAN’AT SOHALARI HAMDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI XODIMLARIDAN BIR GURUHINI MUKOFOTLASH TO‘G‘RISIDA

Vatanimiz mustaqilligini mustahkamlash, Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida amalga oshirilayotgan islohotlarga qo‘shgan munosib hisssasi, o‘zining yorqin iste’dodi, keng qamrovli ilmiy-ijodiy va amaliy faoliyati bilan xalqimizning intellektual salohiyati va ma’naviyatini yuksaltirish, mamlakatimizda ilm-fan, ta’lim, sog‘liqni saqlash, sport, adabiyot, madaniyat va san’at sohalari, ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish, yosh avlodni ona yurtga muhabbat, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida sog‘lom va barkamol etib tarbiyalash yo‘lidagi ko‘p yillik samarali xizmatlari hamda ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki uchun quyidagilar faxriy unvon, orden va medallar bilan mukofotlansin:

- “Oliy Darajali Imom Buxoriy” ordeni bilan

Xoliqnazar Nuriddin Mirzahamdam o‘g‘li — O‘zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy
- “Imom Buxoriy” ordeni bilan

Abdullayev Abdulhay Boltaboyevich — O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi arab tili va adabiyoti al-Azhar kafedrasida dotsenti
Abdullayev Xayrulla Ibodullayevich — Xorazm viloyati bosh imom-xatibi
Alimov Mirzamaksud Xatambekovich — Andijon viloyati bosh imom-xatibi
Sayfudinov Raxmatula Xabibulayevich — Toshkent shahar Yunusobod tumani “Minor” masjidi imom-xatibi
Yunusov Abduqaxxor Rixsibayevich — Toshkent shahar bosh imom-xatibi
- “O‘zbekiston Respublikasi xalq artisti” faxriy unvoni bilan

Mirxadiyev Karim Xusanovich — O‘zbekiston Kinoarboblari ijodiy uyushmasi a‘zosi, kino va teatr aktyori
Rametova Saida Xodjiyevna — O‘zbek Milliy akademik drama teatri aktyori
Sayidov Toxir Samandarovich — O‘zbek Milliy akademik drama teatri aktyori
- “O‘zbekiston Respublikasi xalq rassomi” faxriy unvoni bilan

Baybosinov Sarsenbay Bazarbayevich — J.Izentayev nomidagi Qoraqalpog‘iston Respublikasi ixtisoslashtirilgan san’at maktab-internati rangtasvir fani o‘qituvchisi, rangtasvirchi rassom
- “O‘zbekiston Respublikasi xalq shoiri” faxriy unvoni bilan

Genjemuratov Baxtiyar Allambergenovich — O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi, shoir, tarjimon
- “O‘zbekiston Respublikasi xalq baxshisi” faxriy unvoni bilan

Narmatov Feruzbek Ruzimbayevich — Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti o‘qituvchisi, baxshi
- “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan artist” faxriy unvoni bilan

Axmedova Zarina Axmedovna — O‘zbekiston davlat filarmoniyasi “Navro‘z” ashula va raqs ansambli badiiy rahbari, baletmeyster
Berdiev Ilxombek Yuldashevich — O‘zbekiston davlat drama teatri aktyori
Pazildjanov Jaxongir Gayratovich — “O‘zbek-konsert” davlat muassasasi xonandasi
Ruzmetov Otabek Avazmatovich — O‘zbekiston davlat filarmoniyasi Xorazm viloyati bo‘linmasi balet artisti
- “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi” faxriy unvoni bilan

Xodjayev Ablat — O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti bo‘lim boshlig‘i
Sheraliyeva Tatyana Turgunovna — Farg‘ona viloyati innovatsion madaniyat markazi direktori

MUSTAQILLIGIMIZNI MUSTAHKAMLAYOTGAN TAYANCHLAR

ODIL SUDLOVGA ERISHISH KAFOLATLARI KUCHAYTIRILDI

O‘tayotgan har bir kun, har soat barchamizni erkimiz, faxru g‘ururimiz, baxtu quvonchimiz asosi bo‘lgan davlatimiz mustaqilligining 34 yilligiga tobora yaqinlashtirmoqda. Har bir yurttdoshimiz yuragi “Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!”, deb urayotgan mana shunday farahbaxsh kunlarda, o‘z navbatida, bayramona shukuhga mos yangilanishlar ham ko‘p bo‘layotgani diqqatga sazovor.



Jumladan, joriy yil 20-avgust kuni Prezidentimizning tadbirkorlar bilan o‘tkazilgan navbatdagi ochiq muloqotida tadbirkorlik subyektlaridan kelib tushgan 15 mingta murojaatda ko‘tarilgan tizimli muammolarning yechimi yuzasidan ustuvor vazifalar belgilandi. O‘z navbatida, shu kunning o‘zida “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan V ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi.

YANA 16 TA DAVLATGA EKSPORT

DUNYO BOZORIDA “O‘ZBEKISTONDA YETISHTIRILGAN” DEGAN BREND OMMALASHMOQDA

4

ZIYO VA ZIYON

CHEGARASIDAGI TANLOV

YOXUD KITOBXONLIK MADANIYATI XUSUSIDAGI O‘YLAR

Hozir aytadigan gapimdan keyin yuzingizga istehzo yugurishi tayin. Ehtimol ishonmassiz, bolaligimda Alisher Navoiyning otasini rosmana yomon ko‘rib qolganman. Esimda, o‘sha paytlar hali boshlang‘ich sinf o‘quvchisi edim. Kechki payt xontaxta ustida xira lipillab turgan shamchiroq atrofida tizilib o‘tirgancha biz — aka-ukalar dars tayyorlayotgandik. Shu vaqt katta akam o‘z odaticha navbati bilan ertangi darslarimiz yuzasidan savol-javobni boshlab yubordi.

Aynan o‘sha savol-javoblar mahali Navoiy bobomizning otasi uning yaxshi ko‘rgani kitobini tortib olib, yashirib qo‘ygani haqida eshitdim. Xayolimda birdan qo‘rs va badjahl, bolalik tasavvurimda yovuz bir qiyofa shakllandi. Endi boshqa gap-so‘zlar qulog‘imga chalinmas, o‘y-fikrim allaqachon qadimgi Hirot ko‘chalarida tentirab yurardi...



2025-yil 24-avgust, 173-son

SIYOSAT

YANGI O‘ZBEKISTON



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
F A R M O N I

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUSTAQILLIGINING O‘TTIZ TO‘RT YILLIGI MUNOSABATI BILAN FAN, TA‘LIM, SOG‘LIQNI SAQLASH, SPORT, ADABIYOT, MADANIYAT VA SAN‘AT SOHALARI HAMDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI XODIMLARIDAN BIR GURUHINI MUKOFOTLASH TO‘G‘RISIDA

Boshlanishi 1-betda

“Fidokorona xizmatlari uchun” ordeni bilan

Ruziaxonov Rahmatjon Tursunovich — Boks bo‘yicha O‘zbekiston terma jamoasi katta murabbiyi
Tashmatov Mamurdan Ganiyevich — O‘zbekiston davlat filarmoniyasi, Davlat djas orkestri badiiy rahbari

“Mehnat shuhrati” ordeni bilan

Abdullayev Nasrulla Djalilovich — O‘zbekiston Fanlar akademiyasining O‘simlik moddalari kimyosi instituti direktori o‘rinbosari
Akbarova Farida Sharaximovna — O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi tasarrufidagi “Bo‘ston sanatoriysi” mas‘uliyati cheklangan jamiyati direktori, Toshkent viloyati
Askarov Ibragim Raxmanovich — Andijon davlat universiteti kimyo kafedrasida professori
Ataxanova Xakimaxon — O‘zbekiston davlat yosh tomoshabinlar teatri yetakchi sahna ustasi
Botirov Nizomiddin Fayzullayevich — Toshkent viloyati Qo‘qo‘rg‘on tumanini 8-son umumiy o‘rta ta‘lim maktabi direktori
Raxmanov Vaxob — Guliston davlat universitetining o‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasida dotsenti, Sirdaryo viloyati
Raxmatov Mirvaxit Miraxmatovich — O‘zbekiston Badiiy ijodkorlar uyushmasi a‘zosi, ganchkor usta, Toshkent shahri
Saotov Tal‘at — O‘zbekiston Milliy universiteti huziridagi Biofizika va biokimyo instituti laboratoriya mudiri
Tojiyev Kilich Musajonovich — Oltiariq tumanidagi 14-son bolalar musiqa va san‘at maktabi direktori, xonanda, Farg‘ona viloyati
Xalmedov Mirzaitilla Nigmatovich — O‘zbekiston davlat satira teatri direktori, badiiy so‘z ustasi

“Do‘stlik” ordeni bilan

Abdullayev Rejabboy To‘rayevich — Respublika “Hunarmand” uyushmasi a‘zosi, do‘ppido‘z, Andijon viloyati
Akbarov Abdulla Maxsuliyevich — Marg‘ilon shahar musiqali maqom teatri artisti, badiiy so‘z ustasi, Farg‘ona viloyati
Arzuova Nabiya — O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi, shoira, Qoraqalpog‘iston Respublikasi
Baymuratova Irina Viktorovna — Angren shahridagi 21-son umumiy o‘rta ta‘lim maktabining informatika fani o‘qituvchisi, Toshkent viloyati
Barasheva Svetlana Muxtarovna — Samarqand viloyati rus drama teatri oliy toifali artisti
Begmatov Xayriddin Xoliqulovich — O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi, yozuvchi, Samarqand viloyati
Boynazarov Farxod Erkinovich — Qashqadaryo viloyati musiqali drama teatri bosh rejissyori
Borchaninov Kirill Valeryevich — Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston davlat akademik katta teatri opera solisti
Buvayev Vaxobjon Sodiqovich — Respublika “Hunarmand” uyushmasi a‘zosi, kulol, Namangan viloyati
Djurayev Erkin Zayniyevich — O‘zbekiston Badiiy ijodkorlar uyushmasi a‘zosi, rangtasvirchi rassom, Buxoro viloyati

Yo‘ldoshev Shuhrat Temirovich — “O‘zbekkonsert” davlat muassasasi xonandasi
Kudainazarov Amangeldi Aidarbekovich — Qoraqalpog‘ davlat yosh tomoshabinlar teatri sahnaashtiruvchi rejissyori, Qoraqalpog‘iston Respublikasi
Kurbonov Shukurjon — O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi, shoir
Latipov Azizxon Gaybullayevich — Muqimiy nomidagi O‘zbekiston davlat musiqali teatri solist-vokalisti
Maxkamov Baxtiyar Mirxodiyevich — O‘zbekiston Badiiy ijodkorlar uyushmasi a‘zosi, dastgohli rangtasvirchi rassom
Maxkamov Toxir Turgunovich — “O‘zbekkonsert” davlat muassasasi Farg‘ona viloyati bo‘limi xonandasi
Mustafoyev Suyundik — O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi, yozuvchi
Muxamedov Davlat Kadirovich — Xorazm viloyati “Al-Amal Ijod” xususiy korxonasi ganch o‘ymakor ustasi
Muxtarov Ildar Akadovich — O‘zbekiston Fanlar akademiyasi San‘atshunoslik instituti bosh ilmiy xodimi
Omar-Mun Yasmina Xalidovna — Uchtepa tumanidagi 16-bolalar musiqa va san‘at maktabi o‘qituvchisi, xonanda, Toshkent shahri
Rajabova Yulduz Shamshiddinovna — teatr va kino aktrisasi
Sultonov Allabergan Durdievich — Xorazm viloyati ko‘zi ojizlar maxsus kutubxonasining kitoblarni saqlash bo‘limi mudiri
Tadjimuratova Uljan Turdimuratovna — Toshkent shahri Oliy sport mahorati maktabining erkin kurash bo‘yicha murabbiyi
Taraskin Aleksandr Andreyevich — Toshkent shahridagi “Smart school” nodavlat ta‘lim muassasasining biologiya fani o‘qituvchisi
Turgunov Toxir Mirxasimovich — O‘zbek Milliy maqom san‘ati markazi Yunus Rajabiy nomidagi “Maqom” ansambli oliy toifali artist-sozandasi
Umonov Axrorjon Xolmatovich — O‘zbekiston davlat filarmoniyasi xonandasi
Xaji Akbar Aysa — Shinjon tibbiyot universiteti rektori, Xitoy Fanlar akademiyasi Shinjon fizik-kimyoviy texnika institutining akademik direktor o‘rinbosari
Xametov Rustam Raufovich — “O‘zbek sirk” davlat muassasasi direktori o‘rinbosari, sirk artisti
Xamrayeva Nadira Mixaylovna — Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston davlat akademik katta teatri balet artisti

Xolmatova Ug‘uloy Sultonovna — Bekobod tumanini madaniyat bo‘limining “Nilufar” folklor maktabi badiiy rahbari, Toshkent viloyati
Xolmirzayev Boir Mirzaaliyevich — O‘zbekiston Kinoarboblari ijodiy uyushmasi a‘zosi, kinoaktyor
Xusanov Mirabzal Zairovich — O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi a‘zosi, bastakor
Xusanova Nigora Kaxramonjonovna — O‘zbekiston davlat konservatoriyasining maxsus fortepiano kafedrasida katta o‘qituvchisi
Ergasheva Barno Baxtiyarovna — “Tomosha” bolalar musiqiy teatr-studiyasi bosh baletmeysteri
Yuldasheva Lola Ravshanbekovna — “O‘zbekkonsert” davlat muassasasi xonandasi

II darajali “Salomatlik” ordeni bilan

Axmedov Xoliyor Ergashevich — Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazining Jizzax filiali 1-son jarrohlik bo‘limi shifokor-jarrohi

Dadayev Xurshid Xamidjanovich — Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazining neyroxarohlik jonlantirish bo‘limi mudiri
Janabayev Baxtiyor Bazarbayevich — Toshkent davlat tibbiyot universitetining ko‘p tarmoqli klinikasi bo‘lim mudiri
Masharipov Kadambay — Urganch davlat tibbiyot institutining nefrologiya, gemodializ, travmatologiya va ortopediya kafedrasida dotsenti, Xorazm viloyati
Mirzayeva Xaxida Djurayevna — Olmazor tumanidagi 15-son oilaviy poliklinikasi hamshirasi, Toshkent shahri
Sodiqova Nasiba Axmadovna — Respublika tez tibbiy yordam markazining Navoiy viloyati filiali Xatirchi tumani tez tibbiy yordam stansiyasi navbatchi feldsheri
Yariyev Alijon Ravshanovich — Guliston shahridagi “Ravshan davolash maskani” xususiy klinikasi jarrohi, Sirdaryo viloyati

II darajali “Sog‘lom avlod uchun” ordeni bilan

Yodgorov Zavqiddin Rasulovich — Buxoro viloyati qo‘g‘irchoq teatri bosh rassomi
Yokubova Xalima Jo‘rayevna — Muborak tumanidagi “Sheyx” oilaviy shifokorlik punkti oilaviy shifokori, Qashqadaryo viloyati
Kadirov Ramz Turabovich — O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti dotsenti
Mannopova Oydxinon Sultonaliyevna — Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti akademik litseyining ijrochi direktori
Pirmatova Nodira Yigitaliyevna — Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san‘ati institutining maqom xonandali kafedrasida mudiri, xonanda
Suyarkulov Sherali Rustambekovich — Farg‘ona davlat universitetining aholi tomoqqalaridan samarali foydalanish va dorivor o‘simliklar kafedrasida katta o‘qituvchisi
Teshabayev Tulkin Zakirovich — Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori
Tog‘ayeva Gulandom Jumayevna — O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi, shoira, Toshkent viloyati
Xalikova Muxabbat Shadiyevna — Termiz shahridagi 2-son oilaviy bolalar uyi rahbari, Surxondaryo viloyati

“Sog‘lom turmush” medali bilan

Abduvaitova Larisa Amindjanovna — Tibbiyot bosh boshqarmasining 1-son markaziy klinik shifoxonasi bosh hamshirasi
Qutbidinovna Naima Abduqayimovna — Uychi tumanidagi “Yorqatay” oilaviy shifokorlik punkti tibbiy brigadasi doysasi, Namangan viloyati
Safarova Guljahon Safarovna — Oqdaryo tumanidagi “Uzun” oilaviy shifokorlik punkti mudiri, Samarqand viloyati

“Kelajak bunyodkori” medali bilan

Do‘smatova Mushtariy Yigitaliyevna — O‘zbekiston davlat filarmoniyasi “Shodlik” ansambli balet artisti
Kamalxodjayeva Shukronaxon Axmadillo qizi — Mukarrama Turg‘unboyeva nomidagi “Bahor” davlat raqs ansambli balet artisti
Kosimova Iroda Joxongir qizi — “Diydor” yoshlar eksperimental teatr-studiyasi artisti

Matveyeva Darina Sergeyevna — “O‘zbek sirk” davlat muassasasi oliy toifali artisti
Norov Feruzbek Izzatulloevich — O‘zbek milliy maqom san‘ati markazining Yunus Rajabiy nomidagi “Maqom” ansambli maqomchisi
Nurmatova Shoxidaxon Urmonjon qizi — Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston davlat akademik katta teatri opera solisti
Piyazov Akilbek Burkut uli — Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston davlat akademik katta teatri opera solisti
Sarsenbayeva Inkar Alpibayevna — Qoraqalpog‘ davlat yosh tomoshabinlar teatri aktrisasi
Elmurodzoda Ulug‘bek Axmadjon o‘g‘li — Marg‘ilon shahar musiqali maqom teatri oliy toifali artist-maqomchisi, Farg‘ona viloyati

“Shuhrat” medali bilan

Abdullayev Ravshan O‘ktamovich — Yangiobod tumanidagi 3-son umumiy o‘rta ta‘lim maktabining geografiya fani o‘qituvchisi, Jizzax viloyati
Abdullayev Rasuljon Rustamjon o‘g‘li — O‘zbekiston davlat filarmoniyasining davlat xor kapellasi oliy toifali xor artisti
Abduraximov Faxriddin Sadikovich — O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “Mahalla” teleradiokanali radio loyihalar muharriri bosh muharriri
Absamatov Muxiddin Ismatovich — O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi, shoir
Akramov Mahammadziyo Ravshanbek o‘g‘li — “O‘zbekkonsert” davlat muassasasi xonandasi
Axmedova Nasiba Seydaxmetovna — Respublika “Hunarmand” uyushmasi a‘zosi, o‘yinchoqlar yasovchi usta, Toshkent shahri
Baxromova Dilnoza Eshmirzayevna — Samarqand viloyati Yakkakurash sport turlariga ixtisoslashtirilgan sport maktabi paradzyudo bo‘yicha murabbiyi
Bekmetov Boltaboy — O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi, shoir, tarjimon, Xorazm viloyati
Vaisov Mansurbek Egamberganovich — Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san‘ati institutining maqom xonandali kafedrasida katta o‘qituvchisi
Valatina Viktoriya Sergeyevna — O‘zbekiston davlat filarmoniyasining “Munojot” raqs ansambli balet artisti
G‘aybullayev G‘ulom Saydalimovich — Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar institutining agrobiologiya fakulteti dekani
Gulmurotov Dilmurod Sayitmurotovich — Guliston tumanidagi 2-son bolalar musiqa va san‘at maktabining baxshichilik sinfi o‘qituvchisi, Sirdaryo viloyati
G‘ulomjonov Qaxramon Rustamjon o‘g‘li — “Havas” oilaviy guruhi xonandasi, Toshkent shahri
Djorabayeva Dilduzaxon Mamundjanovna — O‘zbekiston davlat filarmoniyasining “Shodlik” ansambli bosh baletmeysteri
Dosmuxamedov Taxirdjan Djurayevich — O‘zbekiston Teatr arboblari uyushmasining ijodiy bo‘limi boshlig‘i, teatrshunos
Jumayev Turg‘un Po‘latboyevich — Navoiy viloyati qo‘g‘irchoq teatri aktyori

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Toshkent shahri,
2025-yil 23-avgust

Imomova Shahribonu Komilovna — “Guliston” va “Teatr” jurnallari birlashgan tahririyati bosh muharriri
Kattaboyev Sherzod Muxiddinovich — Sirdaryo viloyati musiqali drama teatri oliy toifali drama artisti
Maxmudov Nodirjon Kabildjanovich — “Yangi O‘zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalar tahririyati katta muxbiri
Maxmudova Farangiz Nuridin qizi — Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san‘ati institutining maqom cholg‘u ijrochiligi kafedrasida o‘qituvchisi, sozanda
Mirzayev Dilmurod Valijonovich — O‘zbekiston davlat filarmoniyasining milliy karnay-surnay guruhi badiiy rahbari
Mirzayeva Kamila Baxtiyor qizi — O‘zbekiston davlat filarmoniyasining “Navro‘z” ansambli balet artisti

Muminov Lochinbek Nuriddin o‘g‘li — O‘zbekiston davlat simfonik orkestri oliy toifali orkestr artisti
Musabekov Dilshod Komilbekovich — “Dizayn PRO” mas‘uliyati cheklangan jamiyati aktyori, Toshkent shahri

Muxamedjanov Gulamjon Ibragimovich — Mukarrama Turg‘unboyeva nomidagi “Bahor” davlat raqs ansambli artist-sozandasi
Nabiyev Abdurafukbek Abdurazzoq o‘g‘li — “Rapid Company” mas‘uliyati cheklangan jamiyati rahbari, rejissyor, Toshkent shahri
Rajabov Xayrillo Sadilloyevich — Akademik Sh.Alimov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan ftziatriya va pulmonologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining diagnostika bo‘limi shifokori
Raimkulov Azamat Kenjebayevich — O‘zbekiston davlat simfonik orkestri oliy toifali orkestr artisti
Raxmonova Gulasal Itolmasovna — Muqimiy nomidagi O‘zbekiston davlat musiqali teatri solist-vokalisti

Raxmonova Guzal Shavkatovna — O‘zbekiston davlat simfonik orkestri oliy toifali orkestr artisti
Sayburxanov Zafarbek Obidjanovich — Andijon viloyati musiqali drama teatri aktyori
Seytxalilova Maftuna Axatovna — Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston davlat akademik katta teatrlarining “Tumor” ansambli balet artisti
Toshev Davlat Bo‘ronovich — O‘zbekiston Badiiy ijodkorlar uyushmasi a‘zosi, miniatyurachi rassom
Tugalov Botir Baxromovich — Samarqand viloyati musiqali drama teatri direktori
Umarov Mirzayunos Djurayevich — Respublika “Hunarmand” uyushmasi a‘zosi, yog‘och o‘ymakori, Farg‘ona viloyati
Hamdamova Odinaxon Arabboy qizi — Paravelsport bo‘yicha O‘zbekiston milliy terma jamoasi a‘zosi

Haydarov Ilhomjon Ergash o‘g‘li — “Hujjatli va xronikal filmlar kinostudiyasi” davlat unitar korxonasi rejissyori
Khoriyev Nurilla Ortiqovich — “Yoshlik” jurnali bosh muharriri, yozuvchi
Sharipov Andrey Mirmsameyevich — O‘zbekiston triatlon federatsiyasi sportchisi
Elliyeva Dildora Anvarovna — Jondor tumanidagi 4-son maktabgacha ta‘lim tashkiloti tarbiyachisi, Buxoro viloyati

SH.MIRZIYOYEV

Munosabat

Mamlakatimizda hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish orqali aholi bandligini ta‘minlash, daromadi va farovonligini oshirishga strategik yo‘nalish sifatida e‘tibor qaratilmoqda. Prezidentimizning hududlarga tashrifi asnosida shahar, tuman, qishloq va mahallalarni obod etish, joylarda yangi sanoat tarmoqlarini barpo qilish, infratuzilmalarni yaxshilash bilan bog‘liq ilgari suriladigan taklif va g‘oyalar, shu asosda qabul qilinayotgan chora-tadbirlar islohotlarga yanada shiddat bag‘ishlayapti.

Shu asosda viloyatlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bilan bog‘liq ko‘plab dastur va loyihalar amalga oshirilayotir. Joriy yilga mo‘ljallangan davlat dasturi doirasida mazkur jabhadagi ishlar yanada kengaymoqda. Xususan, hududlarni kompleks rivojlantirish,

urbanizatsiya darajasini oshirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu shahar va qishloqlarimiz qiyofasini tubdan o‘zgartirib, xalqimizning hayot tarziga ijobiy ta‘sir etmoqda.

Bu borada Buxoro viloyatida ham keng qamrovli ishlar bajarilmoqda. So‘nggi yillarda viloyatda 6000 ta yangi sanoat korxonasi ishga tushirildi. Natijada ishlab chiqarish hajmi oshmoqda. Ishsizlik va kambag‘allik darajasi kamayib boryapti.

Yaqinda Prezidentimiz raisligida Buxoro viloyatida islohotlar natijadorligi va yangi loyihalar muvaffaqiyatini yuzasidan bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda ushbu o‘zgarishlar samarasi tahlil etilib, istiqbolidagi vazifalar belgilab berildi.

Yurtimizning ko‘plab hududlari kabi Buxoro viloyati iqtisodiyoti ham yaqin-yaqin gacha sanoqli tarmoqlar bilan cheklangan edi. Bu aholi daromadi va turmush tarziga ta‘sir o‘tkazmay qolmasdi. Ushbu muammolarga yechim topish va hududlar rivojini ta‘minlash maqsadida barcha sohada yangicha yondashuvlar joriy etilmoqda.

Jumladan, jahon iqtisodiyotidagi ilg‘or tajribalarga ko‘ra, hududlar iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish orqali ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirish

maqsadida joylarda erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarini faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Shu bilan birga, o‘ziga xos yondashuvlardan kelib chiqib, “Obod qishloq”, “Obod mahalla” loyihalarini hayotga tatbiq etilyapti.

Faqt davlat byudjeti mablag‘i va bank krediti hisobidan hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta‘minlash mushkul. Shu bois, bu borada xususiy sektorning ijtimoiy mas‘uliyatini oshirish, davlat va xususiy sektor hamkorligi asosidagi loyihalarni amalga oshirishga alohida e‘tibor qaratilyapti.

Bunday xayrli ishlar hududlarning qiyofasini zamonaviylashtirish, yurtimizdagi yangilanishlardan xalqimizning bahramandligini oshirishda ayni muddao bo‘lmoqda. Tabiiyki, taraqqiyotning yangicha nafasi tufayli chiroy o‘chayotgan manzillar xalqimizning hayotiga ma‘no-mazmun olib kirishi barobarida jahon hamjamiyatining mamlakatimizga qiziqishini ham oshirmoqda. Bu, ayniqsa, yurtimizning investitsiyaviy jozibadorligini ta‘minlashda muhim omil bo‘layotir. Misol uchun, so‘nggi sakkiz yilda birgina Buxoro viloyatiga 8 milliard dollardan ortiq investitsiya jalb etilgan. Bu imkoniyat iqtisodiyot tarkibini kengaytiradi, o‘z navbatida, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 6 barobardan ziyod oshdi.

Prezidentimizning 2024-yil 5-dekabrda tegishli qarori esa viloyatda sanoat va xizmat ko‘rsatish sohasini yanada rivojlantirishda muhim asos bo‘lmoqda. Natijada joriy yilning 6 oyida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 7,3 foiz oshdi. 198 ta yangi sanoat korxonasi tashkil etildi. Yalpi hududiy mahsulot hajmi 6,4 foiz o‘tdi. Davlatimiz rahbari tashabbusiga muvofiq tuzilgan “Islohotlar shabii” Buxoroda ham qo‘shimcha imkoniyatlarni yuzaga chiqarmoqda.

— Yig‘ilishda turli tarmoqlarda erishilayotgan natijalar barobarida hali foydalanilmay turgan imkoniyatlar ham borligi ko‘rsatib o‘tiladi, — deydi Buxoro viloyati hokimi Botir Zaripov. — Bu vazifalarni bajarish uchun e‘tibor qaratishimiz lozim bo‘lgan ustuvor yo‘nalishlar belgilab berildi. Xususan, aholi bandligini ta‘minlash, kambag‘allikni qisqartirishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar o‘z vaqtida bajarilishi doimiy nazoratda bo‘ladi. Qolaversa, xorijiy investitsiyalarni ko‘paytirish bo‘yicha ishlar tizimli yo‘lga qo‘yiladi. Ushbu yo‘nalishda o‘tgan yili 1 milliard dollar mablag‘ jalb etilgan bo‘lsa, bu yil 3 milliard dollar chet el sarmoyasi kiritishni ko‘zlaytmiz.

Bunday loyihalar hisobiga iqtisodiyotimizga ilgari umuman bo‘lmagan yangi sohalar

kirib kelyapti. Elektrotexnika, neft-kimyo, mashinasozlik bo‘yicha yangi, yirik loyihalarni amalga oshirishga kirishildi. Qolaversa, ichimlik suv ta‘minotini yaxshilash, yo‘l va transport tizimlarini rivojlantirish bo‘yicha dadil qadamlar qo‘yilyapti.

Taqdimotda bunday xayrli ishlar takomillashtirilib, aholi va tadbirkorlar faoliyatini yengillashtirish, xizmatlar sifatini oshirish bo‘yicha qator yangi taklif va tashabbuslar ilgari surildi. Xususan, “Raqamli hokimiyat” axborot tizimini joriy etish vazifasi belgilab berildi. Tabiiyki, bu ishlar hududni yanada rivojlantirish orqali xalqimizning bugundan roziligini ta‘minlashga zamin yaratadi.

Dunyo tajribasi turizm iqtisodiyotining eng jadal rivojlanayotgan sohalaridan biri ekanini ko‘rsatmoqda. Sayyohlikni rivojlantirish aksariyat mamlakatlar uchun milliy daromadni diversifikatsiya qilish, xalqaro maydondagi nufuzni mustahkamlash va ijtimoiy taraqqiyotni rag‘batlantirishning muhim vositasiga aylanmoqda. Turizm rivoji xorijiy valyuta oqimini ko‘paytirish, aholi bandligini oshirish hamda kichik va o‘rta biznes kengayishi hisobiga yalpi ichki mahsulot o‘shishiga xizmat qiladi.

Bugun Buxoro viloyatida iqtisodiy taraqqiyotni yuksaltirishda ana shu noyob imkoniyatdan foydalanishga ham alohida e‘tibor qaratilmoqda. Xususan, hududning turizm infratuzilmasi yaxshilanyapti, yangi maskanlar tashkil etildi. Nufuzli mehmonxona brendlari kirib keldi. Yillik sayyohlar soni 1 million 700 mingga yetdi. Ammo bu borada hali ishga solinmagan imkoniyatlar ham ko‘p. Xususan, hududda qator qadimiy va mashhur ziyoratgohlar bo‘lsa-da, sayyohlarni ko‘p vaqt olib qoladigan yirik majmualar yo‘q. Bu borada xorijlik investorlarni jalb etib, savdo va ko‘ngilochar maskanlar barpo etish zarurligi ko‘rsatib o‘tiladi.

— Yurtimizda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan ochiqlik siyosati va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar tufayli hududlarda turizm va servis infratuzilmasi juda tez rivojlanayapti, — deydi Buxoro viloyati hokimi o‘rinbosari Botir Shahriyrov. — Jumladan, viloyatimizda bu jabhadagi keng qamrovli dasturlar, infratuzilma sharoiti yaxshilanishi natijasida sayyohlar ko‘paymoqda. Joriy yil ham bu ishlar davom ettiriladi, 6 ta yangi, zamonaviy mehmonxona qurilyapti. Natijada yil oxirigacha 3000 dan ko‘proq o‘ringa ega joylashtrish vositasi ishga tushiriladi. Bu sayyohlik faoliyati kengayishi va yangi ish o‘rinlari ochilishida yana bir imkoniyat bo‘ladi.

Yig‘ilishda bunday loyihalarni kengaytirish bo‘yicha tegishli topshiriqlar berildi. Ushbu vazifalar o‘z vaqtida bajarilishi viloyatning sayyohlik salohiyatini yanada yuksaltirish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sur‘atini oshirishga xizmat qiladi.

Bahor XIDIROVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



Akmal MURODOV,
Navoiy viloyat ma'muriy
sudi raisi

Boshlanishi 1-betda

Farmonda belgilangan asosiy vazifalardan oldin bir jihatni ta'kidlashni istardim. Ya'ni mamlakatimizda keyingi yillarda tadbirkorlik faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, zamon talablariga mos infratuzilma, qulay investitsiya muhiti yaratish borasidagi islohotlar samarasida bugungi kunda bundan 7-8 yil oldingiga nisbatan mutlaqo boshqa biznes muhiti shakllandi. Tarixan juda qisqa davr — keyingi sakkiz yilda iqtisodiyotimiz hajmi 71 foizga o'sgani ham fikrimizni tasdiqlaydi. Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, barcha islohotlarimiz negizida, eng avvalo, inson qadri, tadbirkorlarimizning manfaatlari yotibdi.

Bevosita farmonga qaytagidan bo'lsak, hujjatda tadbirkorlik subyektlariga qulayliklar yaratish maqsadida bank, soliq va boshqa sohalar bilan birga sud-huquq tizimida ham tegishli islohotlar amalga oshirilishi belgilandi. Xususan, Oliy sud Biznes-ombudsman bilan birgalikda 2025-yil yakuniga qadar tadbirkorlik subyektlariga iqtisodiy va ma'muriy sudlarga eksterritorial tartibda murojaat qilish imkoniyatini yaratish bo'yicha qonun loyihasini kiritishi to'g'risida tegishli vazifa qo'yildi.

Shu o'rinda “Sudlarga eksterritorial tartibda murojaat qilish o'zi nima? Undan qanday jiboiy natija kutish mumkin?” degan savol tug'ilishi tabiiy.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksining

32-moddasiga ko'ra, fuqaro yoki yuridik shaxsning arizasi (shikoyati) qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilinayotgan ma'muriy organ joylashgan yer yoxud mansabdor shaxsning ish joyi bo'yicha sudga taqdim etiladi.

Sudlarga eksterritorial tartibda murojaat qilishda esa, ariza (shikoyat) ma'muriy organ joylashgan yer yoxud mansabdor shaxsning ish joyi bo'yicha sudga emas, istalgan hududdagi sudga taqdim etilishi mumkin bo'ladi. Sudlarga bunday murojaat qilish tartibi amaldagi protsessual kodekslarimizda mavjud bo'lmaganligi sababli bu, albatta, sud tizimidagi yangi amaliyot hisoblanadi.

Xalqaro tajribaga nazar tashlaydigan bo'lsak, Qozog'iston Respublikasining 2021-yil 20-dekabrda tegishli qonuniga asosan Qozog'iston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksiga eksterritorial sudlovga tegishlilik tushunchasi kiritilgan. Kodeksning 32-moddasiga ko'ra, taraflar o'zaro kelishuvga



Inson qadriini ulug'lash, yurtodshlarimiz va tadbirkorlarga yanada qulay sharoit yaratish maqsadida sudlar faoliyati bilan bog'liq 2 ta farmon qabul qilindi. Prezidentimizning “Sudlar faoliyatiga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish hamda sud tizimining moddiy-texnik ta'minotini yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi farmoni shulardan biri.

binoan mazkur ish uchun eksterritorial sudlovga tegishlilikni tanlashi mumkin. Ushbu normani amalga oshirish maqsadida Qozog'iston Respublikasi Oliy sudi tomonidan ishlarni eksterritorial sudlovga tegishlilik bo'yicha taqsimlashning algoritmi (tartibi, qoidalari) ishlab chiqilgan. Unga ko'ra, fuqarolik ishi elektron axborot tizimining avtomatik taqsimlanishiga qo'yiladi va shu kunning o'zida axborot tizimi tanlagan sudga yuboriladi.

Aslida, eksterritorial tamoyili yurtodshlarimiz, shu jumladan, tadbirkorlarimiz uchun begona jumla emas. Chunki Prezidentimizning 2021-yil 23-martdagi “Aholi va tadbirkorlik subyektlariga davlat xizmatlaridan foydalanishda yanada qulay sharoitlar yaratish, bu borada byurokratik to'siqlarni qisqartirish bo'yicha qo'shimcha

chora-tadbirlar to'g'risida”gi farmoni bilan davlat xizmatlari ko'rsatish tizimida bir qator yangiliklar, jumladan, eksterritorial tamoyili amaliyotga joriy qilindi. Ya'ni 2021-yil 1-iyundan boshlab fuqarolar doimiy yoki vaqtincha ro'yxatdan o'tgan joyidan qat'i nazar tug'ilish, nikoh, o'lim va nikohdan ajratishni qayd etish bo'yicha istalgan FHDYO bo'limiga murojaat qilishi mumkin bo'ladi.

Sudlarga eksterritorial tartibda murojaat qilish tartibining joriy etilishi tadbirkorlik subyektlariga nisbatan afzalliklar olib kelishi bilan birga, sud tizimida korupsiyaviy holatlarning oldini olish, sudlarga ishonch o'rnatish, ishi ko'rayotgan sudyaga nisbatan har xil shubha-gumonlar ko'lmashligi, ishtar teng taqsimlanib, ish yuklamasi yuqori bo'lgan sudlarning ish yuklamasi kamayishiga olib keladi.

Endi so'zimiz avvalidagi bayram shukhi masalasiga qaytsak. Zero, yuqorida shu kunlarda bayramona shukuhga mos yangilanishlar ko'p bo'layotganini bejiz og'ulamadi.

Darhaqiqat, inson qadriini ulug'lash, yurtodshlarimiz va tadbirkorlarga yanada qulay sharoit yaratish maqsadida sudlar faoliyati bilan bog'liq 2 ta farmon qabul qilindi. Prezidentimizning “Sudlar faoliyatiga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish hamda sud tizimining moddiy-texnik ta'minotini yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi farmoni shulardan biri.

Avvalo, mamlakatimiz sud-huquq tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan, keyingi yillarda bu borada salmoqli natijalarga erishilayotganini ta'kidlash maqsadga muvofiq. Biroq sud amaliyotida bir qator muammolar ham mavjudki, ular aholining sud tizimidan foydalanishda bir qator to'siqlarga duch kelishiga sabab bo'lmoqda.

Xususan, birinchidan, sud ishlarining ko'pincha uzoqqa cho'zilib, qarorlarning kechikishi va ma'lumotlarning shaffof emasligi aholining sud tizimiga ishonchini pasaytiradi.

Ikkinchidan, sud jarayonlarida ishtirok etishning an'anaviy usullari saqlanib qolganki, bu fuqarolar vaqt va imkoniyatining ortiqcha sarflanishiga olib keladi.

Masalan, sud majlislariga shaxsan kelish, uzoq navbatlarda kutish va murakkab

rasmiyatchiliklardan o'tish oddiy fuqarolar uchun katta ovoragarchilik tug'diradi. Bu muammolar nafaqat fuqarolarning qonuniy huquqlarini amalga oshirish imkoniyatini cheklaydi, balki ularning davlat institutiga bo'lgan ishonchini ham kamaytiradi.

Buni hal qilish va sud-huquq tizimi samaradorligini oshirish uchun zamonaviy texnologiyalar, xususan, sun'iy intellekt va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga kengroq joriy etish zarurati mavjud edi. Davlatimiz rahbarining ushbu farmoni esa ayni muammolarni bartaraf etish orqali yurtodshlarimizga katta qulaylik yaratishi bilan ahamiyatli.

Hujjatga ko'ra, mamlakatimizda “Raqamli sud” konsepsiyasi bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Bunda, 2025-yil yakuniga qadar Toshkent shahrida barcha raqamli imkoniyatlarni o'zida mujassam etgan zamonaviy sud zallari tajriba tariqasida tashkil qilinadi. 2026-2027-yillarda tajriba natijalari asosida “Raqamli sud” konsepsiyasi respublikaning barcha sudlarida tatbiq etiladi.

Aholi va tadbirkorlarga qulayliklar yaratish hamda sud ishlarini ko'rishni soddalashtirish maqsadida bir qator choralar belgilanganki, endilikda murojaatlar sudga faqatgina elektron shaklda yuboriladi va sud ishlari to'liq elektron tarzda yuritiladi.

Oldinlari aksariyat hollarda fuqaro va tadbirkorlar sudga ariza yoki da'vo arizasini qog'oz shaklda, sud devonxonasiga shaxsan borib topshiradi. Bu esa o'z navbatida, ortiqcha vaqt va xarajatlarni keltirib chiqaradi.

Farmon bilan taqdim etilayotgan yana bir qulaylik shundan iboratki, ishda ishtirok etuvchi shaxslar sud binosiga tashrif buyurmaydi va sud muhokamalarida masofadan turib ishtirok etadi.

Endilikda sud xarajatlarini elektron shaklda hisoblanadi va to'lanadi. Oldinlari bu jarayonda inson omili kuchli edi. Yangi tartib tizimda korupsiya holatlarini keskin qisqartirishga yordam berishi bilan ahamiyatli.

Muhim yangiliklardan yana biri — sudga ariza berishdan oldin sun'iy intellekt yordamida sud muhokamasining taxminiy natijasi hamda sarflanadigan xarajatlarni shakllantirish imkoniyati paydo bo'lmoqda. Ya'ni sud jarayoni boshlanmasdan oldin uning taxminiy natijasini bilish mumkin bo'ladi.

Bundan tashqari, hujjatda sud sohasini raqamlashtirishning istiqboldagi rejalari

belgilandi. Jumladan, 2025-2027-yillarga mo'ljallangan sud sohasini raqamlashtirish va odil sudlov jarayonlariga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish dasturi tasdiqlandi.

“Farmon bilan iqtisodiy sudlar tizimining optimallashtirish ham ko'zda tutilgan. Xususan, 2026-yil 1-yanvardan boshlab tumanlararo, tuman, shahar iqtisodiy sudlari tugatilib, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida tumanlararo iqtisodiy sudlar faoliyati yo'lga qo'yiladi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad — sudlar faoliyatini samaradorligini oshirish va mavjud axborot-kommunikatsiya texnologiyalar sohasidagi yutuqlardan maksimal foydalanish orqali tadbirkorlarga qo'shimcha qulayliklar yaratish.

Shuningdek, farmonda raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali sud ishlarini yuritish samaradorligini oshirish, sudlarning moddiy-texnik bazasini yaxshilash hamda sudyalor va sud xodimlarining ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Tahsilarga ko'ra, bugungi kunda 162 ta sud uchun yangi binolar qurish, 82 ta sud binosini rekonstruksiya qilish, 93 tasini kapital ta'mirlash va sudyalor uchun xizmat uylarini xarid qilish va ta'mirlash zarurati mavjud. Shundan kelib chiqib, farmon bilan 2025-2030-yillarda sud binolarini qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash bo'yicha aniq chora-tadbirlar rejayi tasdiqlandi.

Umuman olganda, farmon bilan amaliyotga tatbiq etiladigan o'zgarishlar natijasida sud tizimida yurtodshlarimiz va tadbirkorlar uchun qulay, shaffof va samarali xizmatlar taqdim etiladi. Bu esa mamlakatimizda odil sudlovni ta'minlash va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga zamin yaratishi bilan ahamiyatlidir.

Insonning adolati sud muhokamasiga murojaat qilish huquqi umume'tirof etilgan xalqaro huquq normalarida o'z ifodasini topgan. Xususan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 10-moddasida “Har bir inson huquq va burchlarini belgilash va unga qo'yilgan jinoiy aybning qanchalik darajada asosli ekanini aniqlashi uchun to'liq tenglik asosida uning ishi oshkora va adolat talablariga rioya qilingan holda mustaqil va xolis sud tomonidan ko'rib chiqilishi huquqiga ega” deb belgilab qo'yilgan.



Shahzod BAXTIYOROV,
Jinoyat ishlari bo'yicha
Dehqonobod tumani sudi raisi

Adolati sud muhokamasidan foydalanish huquqi inson huquqlari himoyasiga bevosita daxldor ekan, uni amalda ta'minlash davlat organlarining asosiy vazifalaridandir.

Sud odil sudlovning oliy nuqtasi bo'lib, uning mavqegini oshirish esa huquqiy davlat barpo etish yo'lidagi qonuniy jarayon. Aynan shunday yondashuv tufayli mamlakatimizda keyingi yillarda sud-huquq tizimini liberallashtirish, sud hokimiyati mustaqilligini mustahkamlash, odil sudlov sifati va samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan ishlarning ko'lamini va miqyosini nihoyatda kengaytib, yangi bosqichlarga ko'tarilib bormoqda.

Darhaqiqat, huquqiy-demokratik davlat, adolati fuqarolik jamiyati qurishning muhim sharti bo'lgan sud-huquq tizimining mutlaqo yangi konsepsiyasi amaliyotga joriy etildi. Bir so'z bilan aytganda, sud-huquq tizimidagi islohotlarning amaliy natijasi xalqimizning tinch va farovon hayoti, ertangi kunga ishonchida aks etib turibdi.

Davlatimiz rahbari Prezidentlik faoliyatining dastlabki kunlaridanoq aholining huquq va erkinliklarini ishonchli himoyalashga

qaratilgan kechiktirib bo'lmaz chora-tadbirlar haqida bir necha bor ta'kidlab, bu borada qator huquqiy-me'yoriy hujjatlarni qabul qildi. Jumladan, Prezidentimizning 2016-yil 21-oktabrdagi “Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi va 2017-yil 30-noyabrdagi “Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi farmonlari fikrimizni tasdiqlaydi.

Bundan tashqari, davlatimiz rahbarining 2017-yil 21-fevraldagi “O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoni sud hokimiyatini yagona tizim sifatida tubdan takomillashtirish, odil sudlovni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish, inson huquq va

erkinliklarini to'liq hamda ishonchli himoya qilish borasida muhim hujjat bo'ladi.

Sudya mustaqil, beg'araz va xolis bo'lsa, qonunga so'zsiz bo'ysunsa, mas'uliyatni chuqur his qilsa, albatta, adolat qaror topadi. Prezidentimizning 2020-yil 7-dekabrda “Sudyalarning chinakam mustaqilligini ta'minlash hamda sud tizimida korupsiyaning oldini olish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoni sud tizimida yetarli bilim va hayotiy tajribaga ega munosib kadrlarni tanlash va lavozimga tayinlash hamda sudyalor faoliyatini xolis baholash jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash orqali fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining sud hokimiyatiga ishonchini yanada oshirishga zamin yaratdi.

Hech ikkilanmay aytish mumkinki, Prezidentimizning 2025-yil 21-avgustdagi “Sudlar faoliyatiga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish hamda sud tizimining moddiy-texnik ta'minotini yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi hamda “Odil sudlov sohasida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmonlari sohadagi islohotlarning mantiqiy davomi sifatida sudlar faoliyati rivojida yangi davmi boshlab beradi.

Farmonga binoan sudlar faoliyatiga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish jarayonini jadallashtirishga qaratilgan “Raqamli sud” konsepsiyasi tasdiqlandi.

Endi sudga ariza berishdan avval sun'iy intellekt yordamida sud muhokamasining taxminiy natijasi hamda sarflanadigan xarajat shakllantiriladi. Murojaatlar sudga faqat elektron shaklda yuboriladi. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar sud muhokamalarida masofadan turib qatnashadi. Shuningdek,

taraflar va ishda ishtirok etuvchi shaxslarga ishga doir materiallar bilan elektron shaklda tanishish imkoniyati yaratiladi. Sud xarajati elektron shaklda hisoblanadi va ijroga qaratiladi.

Mazkur konsepsiya korupsiyaning oldini olish, fuqarolar va tadbirkorlarning ovoragarchiliksiz odil sudlovga erishish imkoniyatini kengaytiradi.

2025-2027-yillarga mo'ljallangan sud sohasini raqamlashtirish va odil sudlov jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalarini

“Farmonga binoan xolislik va beg'arazlik tamoyillari keng joriy qilinib, fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining sudga ishonchini oshirish maqsadida barcha yo'nalishdagi sudlar bo'yicha mintaqaviy taftish sudlari tashkil etilishi va viloyat, unga tenglashtirilgan sudlardagi taftish instansiyalari tugatilib belgilandi. Ya'ni viloyat va unga tenglashtirilgan sudlarda faqat apellyatsiya va kassatsiya instansiyalari faoliyat yuritrsa, taftish instansiyasi 5 ta hududiy sudda tashkil etiladi.

joriy etish dasturi bilan fuqarolar, advokatlar, yuristlar, sudyalor uchun normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish platformasini ishga tushirish, sud hujjatlarini avtomatik tayyorlash maxsus axborot dasturini yaratish hamda “my.sud.uz” interaktiv xizmatlar portalida fuqarolarga huquqiy yordam ko'rsatish modulini yaratish belgilandi. Bu bilan sun'iy intellekt asosida ishlaydigan virtual maslahatchi yaratilib, sud ma'lumotlari va murojaatchilarga javoblar avtomatik tarzda yetkaziladi. Raqamli hukumat bilan to'liq integratsiya yo'lga qo'yilishi natijasida sudda ko'riylayotgan har qanday nizo bo'yicha ma'lumotlarni real vaqt rejimida elektron olish imkoniyati yaratiladi. Bu qulayliklar hisobiga ishlarni sudda ko'rish muddati keskin qisqarib, ortiqcha qog'ozbozlikka chek qo'yiladi.

Fuqarolik va iqtisodiy sudlardagi nizosiz ishlarni tegishli tashkilotlarga o'tkazish orqali

sudlarning ish yuklamasi yengillashtiriladi. Ya'ni bu toifadagi nizolar notariusal vakolatiga o'tkaziladi. Kelgusida nizo kelib chiqsa, keyinchalik sud tartibida ko'rib chiqilishi mumkin bo'ladi. Bu esa murakkab ishlarni o'z vaqtida, sifati va adolati ko'rish, taraflarning barcha vajini tekshirish, ish samaradorligini oshirish, fuqarolar noroziligining oldini olishga imkon beradi.

Ma'muriy va iqtisodiy nizolar bo'yicha da'vogarlariga aynan muayyan hudud sudiga

murojaat qilish shartligiga oid to'siqlar olib tashlanmoqda va fuqarolarga tanlash imkoni berilmoqda.

Iqtisodiy sudlar tuzilmasi muqobilashtirilishi natijasida 14 ta iqtisodiy sud tashkil qilinadi. Qisqartirilgan sudlarni ish hajmi ko'p bo'lgan sudlarga birlashtirish orqali tadbirkorlik subyektlarini sifati, adolati sudlov bilan ta'minlashga sharoit yaratiladi.

Shuningdek, Sudyalor oliy kengashi huzuridagi Sudyalor oliy maktabi negizida O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi tashkil etiladi. Akademiyada ta'lim jarayoni “ustoz-shogird” an'anasi asosida tashkil qilinib, bunda “bo'lajak sudyani sudya o'qitadi” tamoyili asosiy dastur bo'ladi. Bo'lajak sudyalor nazariy ta'lim bilan chegaralanib qolmay, asosan tajribali sudyalardan kasbiy ko'nikma olish, amaliyotda bevosita ishtirok etish, 6 oylik kasbiy qayta

tayyorlash kursida davlat granti asosida o'qish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bundan tashqari, sudyalarning bilimi va ko'nikmasini oshirib borish zaruratidan kelib chiqib, malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslari tashkil qilinadi.

Akademiyada sud faoliyati mutaxassisligi bo'yicha bir yillik kunduzgi va kechki magistratura dasturi asosida o'qitish tashkil qilinishi ilmiy daraja olish uchun tayanch doktorantura yoki mustaqil izlanuvchilik institutlariga kirish niyatida bo'lgan, biroq magistraturada ta'lim olmagan amaldagi sudyalor va sud apparati xodimlari uchun keng imkoniyat yaratadi.

Endi sudyalor va sud apparati xodimlari akademiyada magistratura dasturi asosida tahsil olib, kelgusida sudlar faoliyatiga doir ilmiy ta'dqiqot va izlanishlar bilan shug'ullanishi mumkin.

Farmonga binoan xolislik va beg'arazlik tamoyillari keng joriy qilinib, fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining sudga ishonchini oshirish maqsadida barcha yo'nalishdagi sudlar bo'yicha mintaqaviy taftish sudlari tashkil etilishi va viloyat, unga tenglashtirilgan sudlardagi taftish instansiyalari tugatilib belgilandi. Ya'ni viloyat va unga tenglashtirilgan sudlarda faqat apellyatsiya va kassatsiya instansiyalari faoliyat yuritrsa, taftish instansiyasi 5 ta hududiy sudda tashkil etiladi.

Mazkur farmonlar sudlar faoliyatiga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali sud ochiqligi, shaffofligini ta'minlash, sud tizimi uchun yuqori malakali huquqshunos kadrlar tayyorlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish, sohada ta'lim, ilm-fan va amaliyot uzviyligini yo'lga qo'yish orqali professional sudyalor korpusini shakllantirish, bu bilan fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish, sud organlarining mas'uliyatini yanada oshirish, aholining sudga ishonchini mustahkamlash imkonini beradi.



YANA 16 TA DAVLATGA EKSPORT

DUNYO BOZORIDA “O‘ZBEKISTONDA YETISHTIRILGAN”
DEGAN BREND OMMALASHMOQDA



Erkinjon BOTIROV,
iqtisodiyot fanlari doktori

Bularning barchasi — yurtimiz qishloq xo‘jaligidagi islohotlar samarasi. Bu islohotlar xalqaro miqyosda ham e’tirof etil-yapti. Mamlakatimizga ishonchli eksportyor davlat sifatida qaramoqda. Birgina misol, joriy yil iyulida O‘zbekiston BMtning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) kengashi a‘zoliciga saylandi. Bu milliy va mintaqaviy tashabbuslarni ilgari surish, yangi loyihalarga mablag‘ jalb qilish uchun katta imkoniyatdir.

Albatta, eksport o‘z-o‘zidan bo‘ladigan jarayon emas. Mahsulot qanchalik ko‘p va sifatli bo‘lmasin, uni xorij bozoriga chiqarish, yana xalqaro maydonda o‘rin egallash mashqaqatli yumush ekanini soha vakillari, tadbirkorlar yaxshi biladi. Shunga qaramay, yurtdoshlarimiz buni uddalayapti. Mahsulotlarimiz kirib borgan bozorlar doimiy xaridorimizga aylanmoqda. Sababi serquyosh o‘lkamizda yetishtirilgan oziq-ovqat mahsulotlari tabiiy va shirin ta‘mga ega. Chet elga borgan kishi bunga darrov guvoh bo‘ladi — tashqi bozorda “O‘zbekistonda yetishtirilgan” degan brend shakllangan.

Talab ham shunga yarasha ortib boryapti. Misol uchun, joriy yilning dastlabki olti oyida yurtimizda oziq-ovqat eksporti 44 foiz o‘shib, 1 milliard 326 million dollarga yetdi. Eksport geografiasi esa 16 ta davlarga kengaydi. Bu ko‘rsatkichlar iqtisodiy rivojlanishga ta’sir ko‘rsatadi.

Shu yil 30-iyul kuni davlatimiz rahbari raisligida meva-sabzavot va oziq-ovqat eksportini ko‘paytirish masalalari muhokamasi bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida ayni vazifalar xususida so‘z bordi. Ya‘ni qishloq xo‘jaligi imkoniyatlaridan kengroq foydalanigan holda eksport hajmini oshirish, bu boradagi ishlarni barcha hududda birdek olib borish vazifalari belgilandi.

Qashshoqlikni qisqartiradigan tarmoq

Haqiqatan, mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi salohiyati yuqori. Yurtimiz tabiati, iqlim sharoiti, ishchi kuchi resurslari va geografik joylashuvi jihatidan meva-sabzavot yetishtirish va eksport qilish imkoniyatimiz katta. Mamlakat ichki bozorida eksport salohiyatini oshirish, yangi bozorlarni o‘zlashtirish va byudjetga tushumni ko‘paytirish esa eksportyorlar uchun qay darajada qulay shart-sharoit yaratilgani bilan chambarchas bog‘liq.

Bu borada O‘zbekistonda zamonaviy bozor mexanizmlarini joriy etish, eksport qilish tartibini soddalashtirish orqali hajmini oshirish, logistika tizimini rivojlantirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur tarmoqda boshqaruv tizimini takomillashtirish, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini tatbiq qilish, kooperatsiyani yo‘lga qo‘yish, zamonaviy resursejlamkor texnologiyalardan foydalanish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksporti hajmini oshirish maqsadida qator farmon va qarorlar qabul qilindi. Ammo hali oldinda qilinadigan ishlar ham talaygina. Boisi, bugun jahon bozorida meva-sabzavot savdosi 205 milliard dollari tashkil etayotgan bir paytda yurtimizning mazkur bozordagi ulushi bir foizga ham yetmayapti. Ushbu turdagi mahsulotlarning mamlakat eksporti tarkibidagi ulushi esa atigi 7 foizni tashkil qiladi.

Bir jihatdan masala tushunarli. Chunki mamlakatimizda yillar davomida qishloq xo‘jaligi imkoniyatidan yetarlicha foydalanilmagan. Sohani rivojlantirishga qaratilgan qat’iy islohotlar esa 2016-yildan keyin boshlandi. Shunga qaramay, o‘tgan qisqa vaqtda erishilgan natijalarni e’tirof etish joiz. Deyarli qarovsiz soha mutlaqo zamonaviy tarmoqqa aylanib, yangi mexanizmlar asosida ishlay boshlashi ortidan yurtimiz iqtisodiyotining yetakchi yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bugun qishloq xo‘jaligi sohasi

Meva-sabzavotchilik mamlakatimiz qishloq xo‘jaligining salmoqli qismini tashkil etadi. Biroq yetishtirgan mahsulotlarimizni yaqin-yaqingacha faqat qo‘shni davlatlarga chiqarish bilan cheklanar edik. Hozir buning aksi — O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini xorijga eksport qilishda yetakchi mamlakatlar qatorida tilga olinyapti. Gilos, o‘rik, shaftoli, mayiz, dukkakli mahsulotlar eksporti bo‘yicha hatto oldingi o‘rinlarda turibmiz.

mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining 28 foizdan ortig‘ini tashkil etmoqda, bandlikni ta‘minlashdagi ulushi qariyb 28 foiz.

Qishloq xo‘jaligi faqat oziq-ovqat yetishtirishdan iborat emas. Paxta tozalash, to‘qimachilik, yengil sanoat, oziq-ovqat, kimyo sanoati kabi ko‘plab tarmoqlarining rivojlanish istiqbollari, iqtisodiy va moliyaviy ahvoli, umuman, butun sanoat salohiyatining yarmiga yaqini bevosita qishloq xo‘jaligiga bog‘liq. Mutaxassislar ham ushbu sohaning ijtimoiy-iqtisodiy o‘shishga ta’siri muhimligini ta’kidlaydi. FAO tadqiqotchilari fikricha, iqtisodiyotning boshqa sohalariga qaraganda qishloq xo‘jaligidagi o‘shish multiplikator vazifasini o‘tab, qashshoqlikni kamaytirishi mumkin. Hisobotda qishloq xo‘jaligidagi iqtisodiy o‘shishning har bir foizi umumiy qashshoqlik darajasining 1,5 foiz qisqarishiga teng ekanini ko‘rsatilgan.

Talab yuqori, ammo...

Oziq-ovqat eksporti tadbirkorlar uchun doim jozibador yo‘nalishlardan biri bo‘lgan. Ammo yaqin yillargacha bunday ishbilanmonlar eksportda muayyan bilimga ega bo‘lishi zarurat emasdi. Boisi, mahsulotlar asosan

bog‘ va tokzor barpo etildi, eskirgan 107 ming gektar ekinzor yangilandi. 1 milliard dollarlik 1500 ta oziq-ovqat loyihasi ishga tushirildi.

Ammo sohada hali kamchiliklar yetarli, berilayotgan imkoniyatlardan to‘la foydalanilmayotgan holatlar bor. Ularni birin-ketin bartaraf etish orqali eksport hajmini oshirish ko‘zlangan. Bu soha ishbilanmonlariga ham qo‘shimcha imtiyozlar, yangi imkoniyatlar beradi. Masalan, dunyoda tobora murakkablashib borayotgan ekologik vaziyat, ob-havo iniqliklari ortib, suv tanqisligi odatiy holga aylangan sharoitda eksport bozori geografiasini kengaytirish orqali byudjetga valyuta tushumini ko‘paytirish muhim masalaga aylangan.

To‘g‘ri, yurtimiz eksport geografiasiga tobora kengayib boryapti, ammo bu hali yetarli va uzluksiz darajada emas. Xususan, bu yilgi meva-sabzavot eksportining 80 foizi 5 davlat hissasiga to‘g‘ri kelgan. Talab yuqori bo‘lgan Buyuk Britaniya, Italiya, Shvetsiya, Yaponiya, Hindiston, Qatar kabilarga esa eksport hajmi kam.

Mahsulotlarni xorijga qimmatroq sotish va bir maromda yetkazib berish uchun qayta ishlash jarayonini takomillashtirish talab etiladi. Mazkur yo‘nalishda ham ishlar qilyapti.



qo‘shni davlatlarga eksport qilinib, talab katta bo‘lmagan. Biroq daromad ham shunga yarasha edi.

Bugun eksportyor tadbirkor rivojlanishi, yangi bozorlarga chiqib, xalqaro maydonda o‘rin egallashi, raqobatga dosh berishi uchun ko‘proq izlanishi, o‘qib-o‘rganishiga to‘g‘ri kelyapti. Chunki katta bozorning o‘ziga yarasha katta talablari bor. Xususan, agrobiznesda har bir tadbirkor eksportni amalga oshirishni strategik qarorlar, bozorni to‘g‘ri tushunishdan boshlashi kerak. Aks holda, mahsulotlarga talab umuman bo‘lmasligi mumkin.

Mahsulot yetishtirish — bu hali tadbirkor foyda oldi degani emas. Asosiy daromad xaridor topib, yetkazib berilganidan keyin ko‘rinadi. Eksportda bu yanada qiyin jarayon. Mahsulotlarni iste‘molchilarga sifatli yetkazib berishdan tortib, bozor talablariga mos tarzda qadoqlash, to‘g‘ri saqlash, o‘z vaqtida eltib berish kabi omillarning barchasini e’tiborga olish zarur. Ba‘zan bularning xarajati mahsulot yetishtirishdan ham qimmatga tushishi mumkin. Eksportyor esa ana shu jihatlarni oldindan baholay olishi lozim.

Hozir logistika masalasi ham dolzarb. O‘zbekiston geografik jihatdan tashqi bozorlardan (meva-sabzavot eksporti uchun) uzoq masofada joylashgan. Bu — mahsulotni iste‘molchilarga yetkazib berish, ya’ni logistika xarajati doim yuqori bo‘ladi degani. Shu sababli arzon mahsulotlarni eksport qilishdan ma’no yo‘q. Daromad kutilganidek bo‘lmasligi mumkin.

Umuman, mamlakat iqtisodiy rivoji, jamiyat farovonligi uchun eksport geografiasini kengaytirish muhim ekan, shu yo‘nalishdagi ishbilanmonlarga imtiyoz, moliyaviy yordam berish o‘zini oqlaydi. Bugun yurtimizda davlat va nodavlat tuzilmalar, donor tashkilotlar tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan ko‘plab loyiha hamda dasturlardan ko‘zlangan maqsad ham shundan iborat. Jumladan, so‘nggi uch yilda mamlakatimizda 250 ming gektar paxtazor va g‘allazor qisqartirilib, oziq-ovqat ekinlari uchun ajratildi. 160 ming gektar yangi

NIGOH

YANGI O‘ZBEKISTON

yuz.uz_news

yuz-

Bugunning gapi

Suvchilar maktabi

O‘ziga xos qarama qarshilik: mutaxassislar tahliliga ko‘ra, dunyoda millionlab odam toza suvga yetisha olmayotgan bir paytda har yili 32 milliard kub metr suv behuda isrof bo‘layotgan ekan. Bir kilogramm kartoshka yetishtirish uchun 300 litr, bir kilogramm jo‘xori yetishtirish uchun 900-1200 litr, bir dona pomidor pishib yetilishi uchun esa 13-20 litr suv sarflanarkan. Har bir inson kuniga 50 litr toza ichimlik suvga ehtiyoj sezadi.



HAR QATRASI AZIZ



“AGROBANK” SUVNI TEJASH BO‘YICHA SAMARALI LOYIHALARNI AMALGA OSHIRMOQDA

Mana shu raqam va dalillardan ko‘rinib turibdiki, hayotimizda suvning qiymatini hech narsa bilan o‘lchab bo‘lmaydi. Ayniqsa, global iqlim o‘zgarishi — qurg‘oqchilik, cho‘lanish, o‘rmonlar kesilishi, tuproq sho‘rlanishi kabi omillar tabiatga va turmushimizga tobora salbiy ta’sir etayotgan hozirgi sharoitda uning har tomchisi tillaga teng bo‘lib borayotgani ayni haqiqat. Binobarin, suvning tez sur‘atlarda kamayib borayotgani global isishning eng xavfli oqibatlaridan biridir. Shu bois, uni asrab-avaylash, tejash choralarini ko‘rish bugunning kechiktirib bo‘lmaydigan vazifasiga aylangan.

Shu nuqtayi nazardan, 2023-yil 18-aprel kuni Prezidentimiz huzurida suv xo‘jaligida va farmatsevtika sanoatida amalga oshirilayotgan loyihalar hamda kelgusi vazifalar muhokamasi yuzasidan o‘tkazilgan yig‘ilishda “Agrobank” huzurida suv tejamlorligi bo‘yicha yangi loyihalarni shakllantirish uchun alohida markaz tashkil qilib, xorijdan malakali mutaxassislarni jalb etish vazifasi qo‘yilganini oqilona qarorlardan biri sifatida e’tirof etish mumkin. Negaki shundan so‘ng Suv xo‘jaligi vazirligi, “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislar instituti” milliy tadqiqot universiteti hamda “Agrobank” aksiyadorlik tijorat banki tomonidan Suvchilar maktabi faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Bundan ko‘zlangan maqsad qishloq xo‘jaligida suv resurslaridan samarali foydalanish madaniyatini shakllantirish, “Suv — tekin emas” tamoyili asosida zamonaviy suv tejoychi texnologiyalarni joriy etish orqali yuqori hosildorlikka erishish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar berishdir, — deydi Suvchilar maktabi rahbari Farhod Saidov. — Ya’ni bu yerda fermerlar, suv xo‘jaligi tizimi korxonalari xodimlari, fermer xo‘jaliklari vakillari uchun o‘quv kurslari tashkil etiladi. O‘quv kurslari mutlaqo bepul. Barcha xarajatlar “Agrobank” tomonidan qoplab beriladi.

O‘quv kurslarini amalga oshirish davomida Turkiya, Xitoy va Ispaniya tajribalari o‘rganildi hamda mahalliy fermerlar o‘rtasida so‘rovnomalar o‘tkazildi. Xorij tajribalari hamda mahalliy fermerlar takliflari asosida o‘quv dasturlari va maxsus o‘quv qo‘llanmalar ishlab chiqildi.

O‘quv kursining birinchi bosqichi qisqa muddatli dastur asosida 2023-yil 29-maydan oktabr oyiga qadar o‘tkazildi va 155 ta qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashgan tumanlarda 61 ming 528 nafar tinglovchi o‘qitildi. Buning uchun 50 nafardan ortiq mahalliy hamda xorijiy professor-o‘qituvchilar, soha mutaxassislari jalb qilindi. Shundan 15 nafar turkiyalik, 2 nafar ispaniyalik mutaxassisdan iborat 5 ta sayyor guruh 5 ta mikroavtobusda hududlarda dars berdi.

O‘quv kursining ikkinchi bosqichida esa asosiy e’tiborni suvdan oqilona foydalanish madaniyatini oshirish orqali aholi orasida shakllangan “suv — tekin” tushunchasidan voz kechish, tejoychi texnologiyalarni joriy etishni kengaytirish va suvni to‘g‘ri boshqargan holda hosildorlikni oshirish maqsadida chuqurlashgan dasturlar ishlab chiqildi. Bunda nazariy va amaliy o‘quv

jarayonlarini sifatli tashkil qilish maqsadida respublikamizning 13 ta hududida o‘quv xonalari tashkil etildi. Shuningdek, 13 ta maxsus jihozlangan mikroavtobuslar tashkil etilib, loyihaga 234 nafar (shundan 35 nafar xorijiy) professor-o‘qituvchi jalb qilindi.

Tajriba nazariy bilimlar bevosita amaliyot bilan bog‘liq holda o‘rgatilishi kerak ekanligini ko‘rsatdi. Buning uchun respublikamizning 13 ta hududidagi o‘quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari bazasida 15-20 gektarlik ilg‘or suv tejoychi texnologiyalar joriy qilingan tajriba maydonlari tashkil qilindi.

O‘tgan yilda 13 mingga yaqin fermer xo‘jaliklari rahbar-xodimlari o‘qitildi. Natijada o‘quv kursida ishtirok etgan 4 mingga yaqin fermer xo‘jaligi suvni tejaydigan texnologiyalarni o‘z maydonlariga joriy qildi.

Joriy yilda 10 mingdan ortiq fermerlarni o‘qitishda o‘quv dasturlari “2025-yil — Suv xo‘jaligida nasoslar samaradorligini oshirish yili” deb belgilangan hamda “bir kanal — bir tizim” tamoyili asosida 13 ta kanalni to‘liq suvni tejaydigan texnologiyalarga o‘tkazish ishlari doirasida olib borildi. Shu asosda bugungi kunga qadar 7469 nafar tinglovchi o‘qitildi.

Suvchilar maktabi faoliyatining ikkinchi bosqichida umumiy holda 60 mingdan ortiq tinglovchilarni o‘qitish rejalashtirilgan.



Shu bilan birga, joriy yilda suv tejaydigan texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha 30 ta metodik qo‘llanmadan iborat to‘plam chop etildi.

Yana bir e’tiborga molik jihati, yurtimizda amaliyotga kiritilgan ushbu tajriba ko‘shni mamlakatlar mutaxassislarida ham katta qiziqish uyg‘otmoqda. Qo‘shni davlatlar bilan suv resurslarini boshqarish sohasidagi o‘zaro hamkorlikni mustahkamlash, transchegaraviy suvlardan barqaror va adolati foydalanish hamda mintaqaviy hamijhatlikni rivojlantirish borasidagi sa’y-harakatlari doirasida 2024-2025-yillar mobaynida tashkil etilgan o‘quv kurslarida Qozog‘iston, Turkmaniston, Tojikiston hamda Afg‘onistondan mutaxassislar ishtirok etdi. Barcha tinglovchilar

oshirish va zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish bo‘yicha fermer va agroklasterlar rahbarlari salohiyatini oshirishdan iborat bo‘ldi.

O‘quv dasturida AQSH, Turkiya va Xitoy kabi mamlakatlarda muvaffaqiyatli sinovdan o‘tgan va yuqori hosildorlik ko‘rsatkichlariga ega xorijiy g‘o‘za navlarining agroteknik xususiyatlari, o‘stirish sharoitlari, tomchilatib sug‘orish texnologiyasi bilan uyg‘unligi muhokama qilindi.

Tinglovchilarga nazariy bilimlarni bevosita amaliyot bilan bog‘liq holda o‘rgatish maqsadida to‘rtinchi yo‘nalishda respublikamizning 13 hududidagi o‘quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari bazasida 2023-2024-yillarda 15-20 gektarlik (jami 255 gektar) tajriba maydonlari tashkil qilindi. Maydonlar lazerli tekislandi, zamonaviy suv tejoychi sug‘orish tizimlari joriy etildi, boshqarish to‘liq avtomatlashtirilib, so‘nggi turdagi meteostansiyalar o‘rnatildi. Natijada qishloq xo‘jaligi ekinlarining suv sarfi 44 foizga, ishchi kuchi 50 foizga, xarajatlari 21 foizga kamaygan hamda hosildorlik 31 foizga oshgan.

Tajriba maydonlarida tinglovchilarga o‘qitish ishlari tashkil etilib, suv tejoychi texnologiyalarni qo‘llash va hosildorlikni oshirish usullari o‘rgatildi.

Bundan tashqari, 2025-2026-yillarda 155 ta tumandagi 7 ming gektarda paxta va g‘alla yetishtirishga moslashgan tajriba maydonlari joriy qilish boshlandi. Har bir tumanda 30 gektardan maydonda yomg‘irlatib va tomchilatib sug‘orish tizimi va quyosh panelidan foydalanilgan holda “namunaviy” tajriba maydonlari tashkil etiladi.

Dilshod ULUG‘MURODOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



